

EVFEMIZMLARNING TILSHUNOSLIKDAGI O‘RNI VA QO‘LLANILISH HOLATLARI

X.U.Urokov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali assistenti

Mardonova Sug‘diyona Nasibillo qizi

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada evfemizmlarning hozirgi kunda ba‘zi sohalarda qo‘llanilishiga doir so‘zlarning izohlari berildi. Bilamizki, adabiy tilning asosini so‘z boyligi tashkil qiladi. Mazkur maqolada evfemizmlarning shakllantirilishi va ma‘no qirralarini ochishdagi ahamiyatini ko‘rib chiqamiz. Evfemizmlardan foydalangan inson o‘z madaniyatini namoyon qiladi. Shundan kelib chiqib, maqolada evfemizmlarning ayrim ko‘rinishlariga to‘xtalib o‘tildi.

Kalit so‘zlar. Evfemizmlar, tibbiyotdagi evfemizmlar, psixologiyadagi evfemizmlar, ijtimoiy muloqotdagi evfemizmlar, oila va tarbiyadagi evfemizmlar.

Bugungi kunda jamiyatimizda har bir sohada va har bir fanda rivojlanish bo‘lgani kabi tilshunoslik ham kundan kunga rivojlanib, olimlar tomonidan hali qo‘l urilmagan mavzular, bahs-munozaraga sabab bo‘lgan muammoli bo‘lgan tilshunoslik masalalariga yechimlar topilishiga, yangi yo‘nalishlar, yangi ilmiy-nazariy qarashlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Barchamizga ayonki, har bir xalqning o‘z hududida, millatida va yurtida foydalanadigan so‘zlari bor. Bularning orasida so‘zning lug‘at tarkibini boyitish uchun chet tilidan so‘zlar olinadi, mavjud so‘zlardan yangi so‘zlar hosil qilinadi, yana boshqa misollarga qaraydigan bo‘lsak, xalqimiz orasida ham ishlatiladigan parazit so‘zlar, varvarizmlar, vulgarizmlar va yana insonlar bir-birlarining ko‘ngliga ozor bermaslik uchun ishlatiladigan evfemizmlar va tabu kabi so‘zlar yig‘indisi mavjud. Darhaqiqat, inson tili juda ham murakkab bo‘lib, uning barcha jihatlarini yaxlitligicha va birdaniga tasavvur qilish o‘ta mushkuldir. Shunday bo‘lsa-da, dunyo tilshunosligi tarixidagi bir necha asrlik tajribalar turli oqim namoyondalari tilni tadqiq etishni eng maqbul yo‘l hisoblab, bu yo‘lda o‘rganish obyektini va uning mohiyatini aniq ko‘rsatib berish uchun butun umrlarini sarflaganlarini ko‘rsatadi. Hozirgi zamon yetakchi tilshunoslik ilmiy markazlarida “evfemizm” tushunchasi nihoyatda keng qo‘llaniladi, semantik kategoriya sifatida muloqotning mazmunga boy jihatlarini namoyon etadi, ifodalangan fikr-mulohazaning muloqot jarayonidagi nufuzini oshiradi. “Evfemizm” yunoncha “yumshoq ifodalash” so‘zlovchiga aytish noqulay, noo‘rin yoki qo‘pol tuyulgan so‘z va iboralarning sinonimi sifatida paydo bo‘lgan so‘zlardir [1]. Tilning taraqqiyoti bilan uning evfemistik qatlami ham rivojlanadi. Yangicha odob-axloq, yangicha dunyoqarash me‘yorlari asosida evfemizmning yangi shakllari yuzaga keladi.

Bunga A. Hojiyev 2002-yilda qayta nashr qilingan “Lingvistik terminlar izohli lug‘ati”da evfemizmga quyidagicha izoh beriladi: “Evfemizm (yaxshi gapiraman) narsa-hodisaning ancha yumshoq formasidagi ifodasi; qo‘pol, beadab so‘z, ibora va tabu o‘rnida qo‘pol bo‘lmagan, botmaydigan, iborani qo‘llash”[1]. Masalan, ag‘yor so‘zining o‘rniga o‘zga, boshqa, begona so‘zlarini qo‘llash. Bu kabi so‘zlarni qo‘llash mahoratini A. Qahhorning asarlarida ham uchratishimiz mumkin. Uning birgina “Jonfig‘on” hikoyasini oladigan bo‘lsak, bunda yozuvchining naqadar serqirra ijodkor ekanligini, kam so‘z qo‘llab olam-olam ma‘no kelib chiqishini uchratishimiz mumkin. “Jonfig‘on” hikoyasida Jonfig‘onning xotini Malohat juda ham sabrli va oqila ayol ekanligini guvoh bo‘lamiz. Buni biz ular orasida kechgan mojarodagi so‘zlarda ham ko‘rishimiz mumkin: “Qo‘y endi, men sen bilan umr qilmayman, ertaga xatimiz keladi”,-deb aytgan. Bu yerda ishlatilgan “umr qilmayman” so‘zi zamirida birga yashamayman,

umrguzaronlik qilmayman, birga hayot kechirmayman, tirikchilik qilmayman, istiqomat qilmayman kabi ma'nolari borligini ko'rishimiz mumkin. Evfemizm xalqlardagi urf-odat, madaniy saviyaning darajasi, estetik did va etnik me'yorlarning rivojlanishi bilan bog'liq.

Evfemizm salbiy voqelikni atashdan qochish, shunday voqelikning salbiy ta'sirini yumshatish uchun xizmat qilib, kishining izzat-nafsiga tegadigan, unga malol keladigan, hurmatsizlik ifodalaydigan, axloqiy me'yorlarga zid keladigan holatlarning yoki to'g'ridan to'g'ri aytish mumkin bo'lmagan maxfiy voqeliklarning salbiy ta'sirini kamaytirish, ularni yashirish, berkitish; noxush xabarni beozorroq, yumshoqroq shaklda yetkazish uchun ishlatiladi. Evfemizmlar nafaqat adabiy-badiiy asarlarda ishlatiladi, balki ularni qo'llash so'zlovchidan katta san'atni talab qiladi. Chunki tilimizda ifodalanadigan his-tuyg'ular nutqimizda evfemizmlarni o'z ichiga olgan chiroyliroq tasvirlar orqali faol va samarali tarzda aks ettiriladi. So'zlovchi, nutq egasi har safar ulardan foydalanishga kirishganida tinglovchi yoki suhbatdoshni xafa qilishi mumkinligini o'ylagan holda ongli ravishda iloji boricha yumshoqroq so'z hamda iboralardan – evfemizmlardan foydalanadi. Tilda evfemizmlarning paydo bo'lishi va amal qilishi, uning o'rganilishi hamda tadqiq qilinishi murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Evfemizmlarning paydo bo'lishi lingvistikaga emas, balki, birinchi navbatda, jamiyatning madaniy va tarixiy rivojlanishining xususiyatlarini o'z ichiga olgan ekstralingvistik omillarga ham bog'liq bo'ladi.

Evfemizm hodisasi bilan shug'ullangan tilshunos olimlarning har biri uning turli belgilariga asoslangan tasniflarini ham u yoki bu darajada amalga oshirishga harakat qilishgan. Hodisa boshqa lisoniy birliklardek serqirra bo'lgani kabi, bu tasniflarda evfemizmlarning turli qirralariga e'tibor qaratilgan bo'lib, qo'lga kiritilgan natijalar ham turlicha. Bu turli-tumanliklar qarama-qarshidek tuyulsa-da, aslida bir-birini to'ldirishga xizmat qilishini ta'kidlash lozim. Evfemizm tilning nutqiy qatlamida sodir bo'ladigan jarayon – qayta nomlash bilan bog'liq hodisa bo'lib, to'la ma'noda uslubiy ma'nodoshlik qatorini tashkil etish bilan xarakterlanadi. U millatning estetik didi, milliy ruhi, odobi va nazokati bo'lib, muomala madaniyatining o'ziga xosligini aks ettiradi. “Evfemizmlarning “dabdabali” (tantanovor), “hurmat-ehtiromli”, “ko'tarinki” ma'no ottenkalari bilan badiiy, ilmiy, so'zlashuv uslubida qo'llanilishi tilning imkoniyatlaridan dalolat beradi. Ayniqsa, o'zbek tilida o'lim bilan bog'liq evfemik vositalarining 300 ga yaqin variant topilganligi ahamiyatli [4]. Bu esa bizga turli vaziyatda sharoitga munosib so'zlarni ishlatishga yordam beradi, shu bilan birga, nutqimiz ta'sirchanligini oshirib, so'zlarimizni ma'nodor va salmoqli qiladi.

Leksikograf O.S.Axmanova tahriri ostida nashr qilingan “Лингвистический энциклопедический словарь” nomli lingvistik lug'atda evfemizmga: “So'zlovchiga beadab, qo'pol, nazokatsiz ko'ringan, o'z sinonimi o'rnida qo'llanila oluvchi hissiy bo'yoqsiz so'z va ibora” degan izoh keltirgan”[2]. Til sistemasida insonning tug'ilishi, o'sish davri, shuningdek, uning o'limiga tegishli leksimalar mavjud. Ana shu lug'aviy ifodalar nutqiy jarayonda ma'lum urf-odatlar, irim-sirimlar natijasida evfemik vositalarga almashadi.

O'zbek tilshunosligida N.Ismatullayev va A.Omonturdiyevning ilmiy ishlarida evfemizm hodisasi, ularning uslubiy xususiyatlari, chorvador nutqida qo'llanuvchi evfemizmlarning lingvistik o'ziga xosliklari maxsus tadqiq qilingan. A.Omonturdiyev evfemizmni uslubshunoslikning tadqiqot obyekti sifatida keng doirada o'rganib, “O'zbek nutqining evfemik asoslari”, “Professional nutq evfemikasi” nomli monografiyasida, “O'zbek tilining qisqacha evfemik lug'ati” kabi ishlarida o'zbek nutqining evfemik asoslarini tadqiq qiladi. Axloqiy va madaniy jihatdan qo'llanishi mumkin bo'lmagan yoki noqulay deb topilgan tushunchalarni ancha yumshoq tarzda birikmalar bilan ifodalash ehtiyoji asosida frazeologizmlar shakllanishi mumkin[3]. Bularga misol tarzda, yarasiga tuz sepmoq iborasini olsak, bu iboraning ma'nosi ostida o'tmishini yodiga solmoq, aybini yuziga aytmq kabi tushunchalarni beradi.

Evfemizmlar – bu noqulay yoki og‘riqli mavzularni yumshatib, osonroq tarzda ifodalash uchun ishlatiladigan atamalar. Ularning hayotimizdagi qo‘llanilishi quyidagi sohalarda ko‘zga tashlanadi:

1. Tibbiyotda evfemizmlar muhim rol o‘ynaydi, chunki ular noqulay yoki noxush vaziyatlarni yumshatishga yordam beradi. Masalan, “o‘lim” o‘rniga “hayotning oxiri” yoki “maxsus ehtiyojlar” degan ifodalar ishlatiladi. Bunday so‘zlar bemorlar va ularning oila a‘zolariga ruhiy jihatdan yengilroq bo‘lishga yordam beradi, shuningdek, muhim ma‘lumotlarni yanada ehtiyotkorlik bilan yetkazish imkonini beradi. Tibbiyot mutaxassisleri evfemizmlar orqali muhokama qilishda mehr-muhabbat va rahm-shafqatni namoyish etishga harakat qiladilar. Ular birgina mehrga to‘la so‘zi bilan ahvoli og‘ir bemorlarni oyoqqa turishiga va qaytadan dunyoga kelishiga yordam berishi mumkin. Shuning uchun ham xalqimiz shifokorlar shirin so‘zga boy insonlar bo‘ladi deb o‘ylaydi.

2. Psixologiyada evfemizmlar odamlar o‘z his-tuyg‘ularini ifodalashda, noqulay vaziyatlardan qochishda va kommunikatsiyani yumshatishda qo‘llaniladi. Masalan, “uzoq muddatli muammolar” o‘rniga “qiyinchiliklar” deb aytish odamlarning psixologik stressini kamaytiradi. Insonlardagi o‘ziga bo‘lgan ishonchini yanada orttirishga va ulardagi “men” ottenkasini o‘stirishga yordam beradi. Bundan tashqari, insondagi kirishimlilikni, muomala madaniyatini shakllantiradi. O‘z ishining mutaxassisleri bo‘lgan psixologlar insonlarning boshidan o‘tkazgan yaxshi va yomon kunlarini, go‘yoki o‘zlari his qilgandek bo‘lishadi va ularga o‘zlarining fikr va mulohazalarini beradi. Ular evfemizmlarni ishlatish orqali insonlardagi depressiyani kamaytiradi va ularga yana hayotga kulib boqishga undaydi yoki hamisha insonlar bilan muloqotda ehtiyotkorlik lozimligini eslatib o‘tadi. Eng muhimi, ular evfemizmlar orqali insonlarga o‘zini-o‘zi sevishini o‘rgatadi.

3. Ijtimoiy muloqotda evfemizmlar, ya‘ni yumshoq yoki dolzarb mavzularni yumshoqroq shaklda ifodalash, ko‘plab maqsadlar uchun qo‘llaniladi. Masalan, taqdirlash, suhbatni yumshatish (odamlar orasida muloqotni soddalashtirish va to‘qnashuvlarni oldini olish), odamlarning hissiyotlarini himoya qilish (qattiq tanqid yoki nojo‘ya fikrlarni yumshatish orqali insonlarni himoya qilish), madaniyat va etikaga rioya qilish (har xil madaniyatlarda muayyan so‘zlar yoki ifodalar salbiy yoki noqulay ma‘nolarga ega bo‘lishi mumkin, evfemizmlar ularni yumshatishga yordam beradi), ijtimoiy noqulayliklardan qochish (ba‘zi mavzularni osonroq va qabul qilinadigan shaklda muhokama qilish). Shu bilan birga, evfemizmlarni haddan tashqari qo‘llash muloqotni noaniq yoki yolg‘on ko‘rsatishi mumkin, shuning uchun ularni joyida va ehtiyotkorlik bilan ishlatish muhimdir.

4. Oila va tarbiyada evfemizmlar muhim rol o‘ynaydi, chunki ular ijtimoiy munosabatlarni yumshatish va noqulay vaziyatlardan qochish imkonini beradi. Masalan, bolalarga nojo‘ya so‘zlarni aytmaslik yoki salbiy his-tuyg‘ularni ifoda etmaslik uchun evfemizmlar ishlatiladi. Oila muhitida ota-onalar ba‘zi tushunchalarni yumshoqroq ifodalash uchun evfemizmlardan foydalanishadi. Masalan, “o‘zini yaxshi his qilmaslik” o‘rniga “salomatligida kichik muammolar bor” deb aytish bolalar uchun yanada qabul qilinadiganroq bo‘ladi. Tarbiyada evfemizmlar bolalarga ma‘lum qadriyatlarini o‘rgatishda ham foydali. Ular tushuncha va his-tuyg‘ularni yanada aniq va zarar bermaydigan tarzda yetkazishga yordam beradi. Bu bolalardagi erkin muloqotni shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Evfemizmlarni oilaviy muhitda bolalarning o‘smirlik vaqtida ko‘proq ishlatiladi. Bunday vaqtda bolalar “men xohlayman” deyish o‘rniga “menga kerak” deb ota-onalari o‘rtasida ko‘p tushunarsiz mojarolarga olib kelishi mumkin. Bunday vaqtda kattalar farzandlariga evfemizmlar orqali ularning ko‘ngillariga ozor bermagan holda vaziyatni tushuntirishi kerak.

Evfemizmlar tilshunoslikda muhim rol o'ynaydi, chunki ular jamiyatdagi noqulay yoki odobsiz mavzularni yumshoqroq, yoqimliroq tarzda ifodalaydi. Bu tilning ijtimoiy va madaniy holatda qanday ishlatilishini, til orqali qadriyatlar va an'analar qanday uzatilishini ko'rsatadi. Umuman olganda, evfemizmlar tilshunoslikda kommunikatsiya uslublarini va ijtimoiy munosabatlarni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Undan tashqari, evfemizmlar tilning evolyutsiyasida ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar bilan bog'liq ravishda muhim rol o'ynaydi. Evfemizmlar yangi so'zlar va iboralar yaratishga yordam beradi, bu esa tilni boyitadi va uning ifodalilik darajasini oshiradi. Evfemizmlar jamiyatning o'zgaruvchan ehtiyojlariga javob beradi. Noqulay yoki noxush mavzularni yumshatish orqali odamlar o'rtasidagi muloqotni osonlashtiradi. Evfemizmlar yordamida odamlar o'z fikrlarini nozikroq va mulohazali tarzda ifoda etishlari mumkin, bu esa muloqotni yanada samarali qiladi. Evfemizmlar turli kommunikativ vaziyatlarda ma'lum bir maqsadga erishishga yordam beradi, masalan, insonlar o'rtasidagi konfliktlarni kamaytirish va hurmatni saqlaydi. Evfemizmlarni ko'proq jonli muloqotda ishlatamiz. Bunda ular suhbatdoshga nisbatan hurmatni ifodalashga yordam beradi, masalan, yaxshi yoki ziyonli holatlarni tilga olishda. Til o'z taraqqiyoti davomida ayrim o'zgarishlarga uchraydi, bu o'zgarishlar lug'aviy tarkibda, grammatik qurilishda namoyon bo'ladi. O'zbek tili xilma-xil til birliklariga ega bo'lib, yozuvchi yoki ijodkor o'z badiiy maqsadidan kelib chiqib, ularni turli o'rin va shakllarda uslubiy bo'yoqdorligi bilan ajralib turadi. Bu maqsadni ro'yobga chiqarishda evfemizmlar eng kuchli ma'no ifodalashi, uslubiy bo'yoqdorligi bilan ajralib turadi. Tilshunoslar evfemizmlarni tilning ohang rivojini, odamlar o'rtasidagi munosabatlarni va jamiyatdagi qadriyatlarini tushunish uchun muhim deb hisoblaydi. Evfemizmlar majoziy tilga tegishli.

Bu borada O.R.Rajabkulov ham o'z fikrini bayon qiladi: "Evfemizmlar tarix davomida qattiq yoki yoqimsiz haqiqatlarni yumshatish va yashirish uchun ishlatilgan"[3]. Ushbu lingvistik qurilmalar nozik mavzularni ijtimoiy jihatdan maqbulroq tarzda ifodalash uchun xizmat qiladi. Ular nafaqat biror tushunchaning haqiqiy ma'nosini yashirish yoki yumshatish uchun xizmat qiladi, balki odamlarning nutqidagi qo'pol, haqoratli g'oyalarni biror yumshatuvchi ibora yoki so'z bilan almashtirishda ishlatishi mumkin.

N.R.Xudoyberganovanning aytishicha: Evfemizmlar nafaqat filologiya va tilshunoslikning, balki madaniyatshunoslikning ham o'rganish obyekti bo'lishi kerak, chunki bizning davrimizdagi insonlar tobora o'zgarib, qo'pol so'zlardan ko'proq foydalanishyapti"[3]. Zero, xushmuomalalik, odob-axloq, xulq-atvor qoidalari, odob-axloq talablarini mensimaydigan odamning kelajagini tasavvur qilish qiyin.

Yuqoridagi mavzu doirasida hozir ham ko'plab olimlarimiz o'zining qarashlarini ilgari surmoqda. Chunki bu mavzu haqida qancha ko'p ilmiy ish qilinsa, uning ma'nolari yanada ko'payib, ma'no qirralari o'zining sehrini insonlarga ko'rsataveradi. Yana qo'shimcha tarzda aytadigan bo'lsam, inson hayoti davomida hech qachon evfemizmlardan kecha olmaydi. Sababi, evfemizmlar insonga o'z fikrini to'la, ixcham, shu bilan birga, aniq va tez ifodalashga yordam beradi. O'quvchilar nutqidagi evfemizmlarga xos kamchiliklarni tuzatishda ehtiyotkorlik lozim. Avvalo, o'quvchilarga evfemizmlarga xos so'zlar tilimizning boyligi, milliy va ma'naviy qadriyatlarimizning uzviy qismi ekanini uqtirish kerak. Ammo ularni o'rinli-o'rinsiz qo'llayverish, ayniqsa, yozma nutqda so'zlashuv uslubiga xos evfemizmlarni ishlatib yuborishdan saqlanish lozimligini tushuntirish lozim.

Evfemizmlarni o'rganish orqali o'tmishda ishlatilgan so'zlarni tushunib yetishga yordam beradi. Bunga qo'shimcha tarzda, insonlar bir-birlaridagi ruhiy jarayonlarni tushunishiga yordam beradi. Tilimizda ifodalanadigan his-tuyg'ular nutqimizda evfemizmlarni o'z ichiga olgan

chiroyliroq tasvirlar orqali faol va samarali tarzda aks ettiriladi. Evfemik tasvirlarni ifodalash uchun til vositalarini tanlash turli xil motivlar va harakatlar bilan bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N. Ismatullayev. Hozirgi o‘zbek tilida evfemizmlar// ToshDPI ilmiy asarlari. —T.,1963.
2. О. Ахманова. Лингвистический энциклопедический словарь. — М: УРСС: Едиториал УРСС, 2004.
3. X. Qodirova. O‘zbek tilida evfemizm va disfemizm.—T., Bookmany print”.2022.
4. A. Omonturdiyev. Bir so‘z lug‘ati.—Termiz: Jayhun, 1996.